

PSIXOLOGIYA FANINING RIVOJLANISH TARIXI VA UNI
O'RGANISHDAGI KAMCHILIKLAR

Qo'ldosheva Umida
Xolmo'minova Sevinch

Termiz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada psixologiyaning rivojlanish tarixi, psixologiyaning sohalari va uni o'rganishdagi kamchiliklar haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *motiv, inson psixikasi, ijtimoiy psixologiya, ongosti, psixokardiologiya, tibbiyot psixologiyasi.*

Psixologiya fani o'quv predmeti sifatida ta'lim muassasalari o'quv dasturiga kiritilgan bo'lib, talabalar ushbu fandan muloqot munosabatlarini, ular o'z fikrlarini bayon eta olish qobiliyatini, kechinmalari, qiziqish va o'z ustida ishlash, barkamol shaxs bo'lib yetishishida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda psixologiya tarixi qachon boshlangan? degan savol tug'iladi. Psixologiya fani ko'hna tarixga ega bo'lishiga qaramay, u juda navqiron fan hisoblanadi. Psixologiya haqidagi tushunchalar dastlab Misr, Fors, Xitoy, Gretsiya kabi davlatlarda paydo bo'lgan. Psixologiya eksperimental tadqiqot sohasi sifatida 1854-yilda Gustav Fexnerning tajriba o'tkazish haqida birinchi nazariyasini yaratgandan so'ng boshlandi. Shundan keyin Vilgelm Vunt Germaniyaning Leyptsig shahrida psixologik tadqiqotlarga asoslangan birinchi psixologik laboratoriyaga asos soldi. U o'zini o'shanda psixolog degan birinchi shaxs edi. Psixologiyaning tabiiy fan sifatida paydo bo'lishida Tomas Uillis miya faoliyati nuqtayi nazaridan psixologiyaga murojaat qilishda, anotomil ishi va risolasi orqali turtki berdi. Rivojlanish davrida psixologik fikrlar mukammal holga kela boshladi, unga oid yangi tushunchalar paydo bo'la boshladi. Psixologiya haqidagi darsliklar yozila boshlaganiga qariyb 160 yildan oshdi. Shu davr ichida unga oid juda ko'plab ilmiy asarlar, qo'llanmalar, monografiyalar yozildi. XXI asrga kelib esa O'zbekistonda ham psixologiya faniga ham e'tibor qaratila boshladi. Bunda inson o'z ustida ishlashi, o'z mukammalliligi haqida qayg'urishi masalasi har qachongidan ham katta masalaga aylandi. Psixologiya faninfa sifatida yurtimizda rivojlanishiga qaraydigan bo'lsak, u faqatgina 10 yil davomida shakllangan xolos. Ammo shuni ham aytish kerakki, aslida yurtimizda psixologik tadqiqotlar oilaviy munosabatlarga ko'proq qaratilgan. Ushbu



tadqiqotlardan birini N.Sog'inov o'z tadqiqotlarida ko'rib chiqdi. Unga ko'ra, o'zbek oilasiga xos bo'lgan oila munosabatlari, oila qurishning o'zbekchilikka xos bo'lgan xususiyatlari, o'zbek oilalaridagi psixologik majorola, ajrimlarning sabablarini o'rganish natijasida, o'zbek oilalarining qurilishining asosiy sabab-motivi-birinchi, "Farzandli bo'lish", ikkinchi "Jamoatchilik oldida gap-so'zga qolmaslik", uchinchi esa "Ota-ona, qarindoshlarining istaklarini ro'yobga chiqarish" va ko'pgina qarashlar aniqlandi. O'zbek psixologlari oldidagi yana bir muhim bo'lgan tadqiqotlardan biri shuki, shaxs va ijtimoiy guruh vakillari psixologiyasida ro'y beradigan o'zgarishlar, xulq-atvorni ilmiy tarzda ishlab chiqish masalalari mavjud.

Hozirgi davr psixologiyasi kundan-kunga rivojlanib, takomillashib, yangi-yangi sohalari yaratilmoqda. Ularga harbiy psixologiya, mehnat psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi, yuridik, tijorat, sport, pedagogik va boshqa sohalari mavjud. Hozirgi zamon psixologiyasi ko'p tarmoqqa ega bo'lgan soha bo'lib, 60dan ortiq mustaqil tarmoqni o'z ichiga oladi.

Psixologiya fanining ma'lumotlaridan amaliy maqsadda, ta'lim - tarbiyada, ishlab chiqarishda, tibbiyotda, san'at, umuman olganda barcha sohalarda qo'llanildi. Psixologiya fani haqida juda ko'p ma'lumotlarni keltirib o'tsak bo'ladi. Psixologiya inson ruhiyati haqidagi fan deb bema'lol aytishimiz mumkin. Inson sezgilari, uning idrok etishi, hissiyoti, muomalasi, hayol qilishi psixologik jarayondir. Psixologiya orqali inson psixikasi o'rganiladi.

Xo'sh, psixologiya fanining boshqa fanlardan farqi nimada? degan savol tug'iladi. Farqi shundaki, psixologiya ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qo'llaniladi. O'z ma'lumotlarining har tomonlama ko'pqirraliligi, muloqot munosabat boshqacha ekanligi bilan ajralib turadi. Ammo shuni ham aytish kerakki, o'zbek xalqi orasida "Guruch kurmaksiz bo'lmaydi" degan maqol bor. Shu sababli ham psixologiya fanining ham o'z kamchiliklari mavjud. Psixologiya fanlarining bir qator muhim yo'nalishlarida kamchiliklar mavjud. Jumladan, mamlakatimizda tibbiyot psixologiyasi bo'yicha ilmiy ish qilgan mutaxassislar barmoq bilan sanaydigan darajada. Ammo Toshkentda tibbiyot psixologiyasiga oid magistratura ochilgandan so'ng, bitirgan talabalar ish topishda sarson bo'lishdi.

Psixologiyadan tashqari psixokardiologiya, psixosonkologiya kabi qator fanlar bor. Ammo bu fanlardan talabalar uyoqda tursin, hatto olimlar ham yetarli ma'lumotga ega emas. Bu sohalarga oid bironta ham maqola yo'qligi achinarli holatdir. Hozirgi kunda o'quvchilarga qobiliyatini rivojlantirishdagi talabalar qo'yildi. Ijod maktablari, prezident maktablarini tashkil etishdagi maqsad ham shunda. Ammo bazi maktablarda ishlayotgan o'qituvchilarda



ongostining xususiyatlari haqida bilimlarni rivojlantirishga e'tibor berilmayapti. Buning asosiy sababi psixologlarning kamligidadir. Nafaqat tibbiyot psixologiyasida, umuman olganda barcha sohalarida kamchiliklar mavjud,

Ta'lim tarbiya, tibbiyot va ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ham psixologiya fanida vujudga kelayotgan ma'lumotlarni o'rganish va iloji boricha amaliyotga tadbiiq qilish O'zbekistonda psixologiya sohasi tezroq rivojlanishiga xizmat qiladi. Davrimiz insonni mustaqil fikrli shaxs sifatida har bir soniyada o'ylashga ,fikrlashga mulohaza yuritib ,o'zi uchun xulosalar chiqarishga majbur etmoqda. Ya'ni bu cheksiz olamda biz o'zimizni o'zgalarsiz ,o'z manfaatlarimizni o'zgalar manfaatiz tasavvur qila olmaganimiz uchun ham psixologiyani bilishga majburmiz. Zero, mustaqil davlatimizning siyosati inson manfaatini himoya qilish, uning uchun munosib turmush tarzini yaratish ekan, bu ishlarni amalga oshirish uchun bo'lg'usi mutaxassis,u pedagog o'qituvchi bo'ladimi yoki quruvchi muhandis yoki agronom bo'ladimi ,shifokor bo'lib, el dardiga darmon bo'ladimi, ijtimoiy borliq qonunlarini bilishi va undan maromida foydalanib, turmush normalariga bo'ysunishi, jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallab, fuqarolik burchini ado etishi darkor.

Xulosa qiladigan bo'lsak, psixologiya avvalambor,inson psixikasi uchun eng zarur fan hisoblanadi. Psixologiya uzoq tarixga ega bo'lgan fandır. Psixologiya fani asta-sekinlik bilan rivojlanib bormoqda. Psixologiya sohalarida yaqin kelajakda yangiliklar bo'lishiga ishonamiz. Hamda psixologiya sohasidagi kamchiliklarga aslo biz ham ko'z yuma olmaymiz. Qo'limizdan kelganicha izlanishimiz, ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishimiz kerak. Biz qanchalik ko'proq ma'lumotga ega bo'lsak, psixikamiz ham shunchalik barkamol bo'lib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. P.I.Ivanov.M.E.Zufarova Umumiy Psixologiya
2. G'oziyev E “Umumiy psixologiya” 1-kitobi Toshkent 2004
3. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O ‘SMIRLARNING SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.
4. qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO ‘LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK



XIZMATNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 418-421.

5. qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG‘LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 32-35.

6. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. Общество и инновации, 2(2), 222-227.

7. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi–jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, 1148-1151.

8. qizi Imonova, M. B. (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. Results of National Scientific Research International Journal, 2(3), 156-161.

9. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya–qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 35-37.

10. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 74-76.

11. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.

12. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.

13. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.

14. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.

15. Иманов, Б., & Иманова, М. Б. Қ. (2021). ДАРС ТУЗИЛМАСИ ВА УНГА ТАЙЁРГАРЛИК. Academic research in educational sciences, 2(5), 1158-1162.



16. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.

17. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA SOG 'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 369-373.

18. Karimova, M. (2023). QIZLARNING MUHABBAT BORASIDAGI TASAVVURLARINING OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA'SIRI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).

19. Ne'Matullayeva, S. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O 'YIN TERAPIYASINI QO'LLASHGA OID QARASHLAR. Science and innovation, 1(B4), 444-449.

20. Nematullaeva, S. (2023). DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH GAME THERAPY. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 86-88.

21. Ne'matullayeva, S. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oyin terapiyasini qo'llashda innovatsion usullar. O 'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 1(6).

22. Nematullaeva, S. (2023, April). The role of play therapy in a child's life. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 1, pp. 9-10).

23. Неъматуллаева, С. Х. (2023). Влияние Игровой Терапии В Формировании Личности Детей. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(2), 31-33.

24. Нематуллаева, С. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida kamolotida o'yin terapiyasining ahamiyati . Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 43–46. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/psychological-service-education/article/view/23475>

25. qizi Ne'matullayeva, S. X., & Ulug'bek qizi Abduqahhorova, M. (2023). BOLA SHAXSINING RIVOJIDA O 'YIN TERAPIYASINI QO 'LLASH SHART-SHAROITLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 341-344.

26. Ne'matullayeva, S. (2022). PERSPECTIVES ON THE USE OF PLAY THERAPY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. Science and Innovation, 1(4), 444-449.



27. Норбошева, М. А. (2023). КЛАССИФИКАЦИЯ МОТИВОВ УЧЕНИЯ. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 255-258.

28. НОРБОШЕВА, М. А. (2020). Отражение Национальных Ценностей В Национальных Играх. ECLSS Online 2020b, 312.

29. Нарбашева, М. А. (2021). Развитие компетентности у педагога дошкольных образовательных организаций. Наука и образование сегодня, (7 (66)), 65-66.

